



## **ONA TILI DARSLARIDA DISKURSIV YONDASHUV ORQALI NUTQIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH YUZASIDAN TAVSIYALAR**

**Boymaxmatova Dilnoza Do‘smat qizi,**  
*ToshDO‘TAU tayanch doktoranti*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15206585>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada bugungi kunda ona tili ta’limida diskursiv yondashuv asosida o‘quvchilarning muloqotini rivojlantirishga qaratilgan metod va topshiriqlar yuzasidan tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** diskursiv yondashuv, rolli o‘yin, munozara va tahlil, internet, online, matn, diskurs, esse, mantiqiy, fikr.*

**Kirish.** Diskurs, mantiqiy izchillikda fikr bayon qilishning har xil turlarini ifodalaydi. Masalan, kundalik faoliyat jarayonida amalga oshiriladigan muloqot, intervyu berish, ma’ruza qilish, rasmiy holatlarda amalga oshiriladigan muloqotning ham og‘zaki ham yozma shakllari mavjud. O‘quvchilarga turli o‘quv predmetlari berish bo‘yicha ta’lim berish jarayonida shunday muloqot matnlarini yaratish ko‘nikmasini hosil qilish maqsadga muvofiqdir [1]. Ona tili ta’limida diskurs yuzasidan tadqiqotlar deyarli yo‘qligini inobatga olsak, diskursiv yondashuv orqali o‘quvchilarning muloqotini rivojlantirish muhim pedagogik muammodir.

Diskursiv yondashuv – bu ma’lumotlar, fikrlar va qarashlarni tahlil qilish, muhokama qilish va muloqot qilish orqali bilimlarni hamda tushunchalarni shakllantirish usulidir. Bu yondashuv asosan o‘zaro fikr almashish va konstruktiv muloqotga asoslanadi, bunda turli nuqtai nazarlarni qabul qilish va muhokama qilish muhim hisoblanadi. Ona tili darslarida o‘quvchilarning muloqotga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlash bugungi kunda ona tili ta’limining bosh vazifalaridan biridir. Chunki o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, ularga to‘g‘ri talaffuz qilish qoidalarini o‘rgatish va lug‘at boyligini shakllantirish har bir ona tili va adabiyot o‘qituvchisining bosh vazifasidir. Shunday ekan ona tili ta’limining bosh maqsadi o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyati orqali og‘zaki va yozma ko‘nikmalarini to‘g‘ri, aniq, ravon shaklda ifodalashdan iborat.

Diskursiv yondashuv asosida o‘quvchilarning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun turli usul va metodlardan foydalanish mumkin. Diskursiv yondashuv muloqotdagi ijtimoiy va madaniy kontekstlarni inobatga olib, nutqning turli ko‘rinishlarini tushunishga va ishlatishga yordam beradi. Ona tili darslarida



diskursiv yondashuv asosida 5-6-sinf o‘quvchilarining muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun quyidagi topshiriqlar va metodlarni tavsiya qilish mumkin:

### **1. Muloqot o‘yinlari.**

**Metod:** Rolli o‘yin [2].

**Topshiriq:** O‘quvchilarni 3 ta guruhga bo‘ling va har bir guruhga muayyan nutqiy vaziyatni yaratib berish lozim. Masalan, “Do‘stingiz bilan sayohat mavzusida suhbat quring”, “Eng sevimli fanim mavzusida suhbatlashing”, “Sinfdoشلaringiz og‘zaki nutqda qanday kamchiliklarga yo‘l qo‘yadi?” mavzusida suhbatlashing. Har bir guruh o‘z vaziyatini o‘ynab, muloqotga kirishadi. Bu o‘yin o‘quvchilarga turli rollarni bajarish va muloqot qilishni o‘rganish imkoniyatini beradi.

### **2. Darslikdan tashqaridagi vaziyatlarni tahlil qilish.**

**Metod:** Munozara va tahlil.

**Topshiriq:** O‘quvchilarga biror muammo yoki dolzarb masalani (masalan, “Onlayn kitoblar o‘quvchilar uchun uchun foydalimi yoki zararli?” kabi) savollar berib, ularni kichik guruhlarga ajratish mumkin. Har bir guruh muayyan vaziyatni ikki tomonlama baholab, o‘z fikrlarini aytib, boshqa guruhning fikriga javob berishadi. Bu metod o‘quvchilarga tahlil qilish, fikr almashish va to‘g‘ri muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

### **3. Dialoglar va intervyular tashkil etish.**

**Metod:** Dialog va intervyu.

**Topshiriq:** O‘quvchilarni juftlarga bo‘ling va ularga intervyu o‘tkazish topshirig‘ini bering. Masalan, “Menimcha, maktabda qanday o‘zgartirishlar qilish kerak?” yoki “Kelajakda qanday kasbni tanlashni xohlaysiz?”. Har bir o‘quvchi boshqa o‘quvchini intervyu qilishi va keyin bir-birlariga javob berishlari kerak. Bu topshiriq muloqot ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

### **4. Esse yoki ijodiy matn yozish va baholash.**

**Metod:** Yozma va og‘zaki muloqot.

**Topshiriq:** O‘quvchilarga biror bir nutqiy vaziyat yuzasidan esse yoki ijodiy matn yozishni topshiring. Keyinchalik, ular yozgan esse yoki ijodiy matnlarni sinfda o‘qib, boshqa o‘quvchilarga tushuntirishlari kerak. Bu metod, o‘quvchilarning o‘z fikrlarini aniq va lo‘nda ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

### **5. “Teskari fikr” faoliyati.**

**Metod:** Tanqidiy fikrlash.

**Topshiriq:** O‘quvchilarga oddiy bir gapni ayting, masalan, “Internetdan foydalanish foydali”. Keyin ular bu fikrga qarshi fikr bildirishlari kerak. “Anglash,



yangi o‘quv materialining tushunilishiga erishish vositasi hisoblanadi” [3], – deyilishi o‘ziga xos mazmundorligi bilan ahamiyatlidir. O‘quvchilar o‘quv topshirig‘ini o‘qib o‘rganishi, uni ongli tarzda anglab yetishi, tushunishi bilimlar yig‘indisi bo‘lib boyib boradi, so‘z boyligi oshadi. Ularning nazariy ma’lumotlarni anglashi va tushunishi asnosida matn yaratish ko‘nikmasi, kommunikativ kompetensiyasi rivoj topadi. Bu faoliyat o‘quvchilarga boshqalarning fikriga qarshi turib, o‘z nuqtai nazarlarini to‘g‘ri ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Yuqoridagi metodlar va topshiriqlar o‘quvchilarning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda juda samarali bo‘lishi mumkin. Ular muloqotda ishtirok etish, fikrlarini aniq ifodalash va boshqalar bilan samarali o‘zaro aloqada bo‘lishni o‘rganishadi.

Xulosa qilib aytganda, diskursiv yondashuv asosan o‘zaro muloqot, fikr almashish va nuqtayi nazarlarni tahlil qilishga asoslanadi. Bu usul orqali insonlar ko‘proq chuqur tushuncha va bilimga ega bo‘lishlari mumkin, chunki ularning qarashlari va fikrlari o‘zaro mustahkamlanadi va kengayadi. Ona tili dars jarayonida bu kabi yondashuv asosida darslar tashkil etilganda o‘quvchilar nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish bir qancha osonlashadi.

#### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. Aminova F. “O‘quvchilarni muloqot matni yaratishga o‘rgatishning didaktik asoslari” diss... Toshkent – 2007, 129-bet.
2. Dadaboyeva Sh., Dadaboyeva K. “Dars jarayonida interfaol metodlarning qo‘llanilishi” // “Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” mavzusidagi respublika 47-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2022 йил. Тошкент: “Tadqiqot”, 2022. – 205 б.
3. Фарберман Б.Л., Мусина Р.Г., Жумабоева Ф.Н. Олий ўқув юртларида ўқитишнинг замонавий усуллари. Тошкент, 2002. – Б. 137-145.